

ZAMONAVIY TERGOV AMALIYOTIDA INSON HUQUQLARIGA OID YANGI  
YONDASHUVLAR

Murtazayev Shahboz Alimardon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
“Prokurorlik faoliyati” 2-kurs talabasi.

[Shahbozmurtazayev27@gmail.com](mailto:Shahbozmurtazayev27@gmail.com)

Murtazayev Abdulaziz Alimardon o‘g‘li

Samarqand Davlat Universiteti Yuridik Fakulteti 3-Kurs Talabasi.

[Abdulazizmurtazayev85@gmail.com](mailto:Abdulazizmurtazayev85@gmail.com)

G‘aniyev Xurshidbek Yoqubjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
“Tergov faoliyati” 2-kurs talabasi.

[khurshidganiyev577@gmail.com](mailto:khurshidganiyev577@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14760002>

*Annotatsiya.* Ushbu tezisda zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlariga oid yangi yondashuvlar va ularni amalga oshirish zaruriyati o‘rganiladi. Tergov jarayonida inson huquqlarining himoyasiga e’tibor qaratish, xalqaro standartlar va zamonaviy texnologiyalarini qo’llashning ahamiyati muhokama qilinadi. Tezisda BMTning **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi**, xalqaro huquq me’yorlariga rioya qilish, qiyonoqlarga qarshi kurash, psixologik yondashuvlar va texnologiyalarning tergovdagi xavflari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda so‘nggi islohotlar haqida so‘z boradi. Tezis, tergov jarayonida inson huquqlarini himoya qilishning muhimligini ta’kidlaydi va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ularni samarali tatbiq etish zaruriyatini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Tergov amaliyoti, inson huquqlari, qiyonoqlar, psixologik yondashuv, axborot texnologiyalari, huquqni muhofaza qilish, xalqaro standartlar, adolat, insonparvarlik.

**Abstract.** This article analyzes new approaches to the protection of human rights in modern investigative practices. It examines international standards, psychological approaches, modern technologies, and reforms being implemented in Uzbekistan. Recommendations for the effective protection of human rights during investigation processes are proposed.

**Keywords:** Investigation practice, human rights, torture, psychological approach, information technologies, law enforcement, international standards, justice, humanitarianism.

**Аннотация.** Данная статья анализирует новые подходы к защите прав человека в современной практике расследований. Рассматриваются международные стандарты,

*психологические подходы, современные технологии, а также реформы, проводимые в Узбекистане. Предлагаются рекомендации по эффективной защите прав человека в процессе расследования.*

## KIRISH

Zamonaviy huquqiy tizimning muhim ustunlaridan biri inson huquqlarini himoya qilishdir.

Tergov amaliyoti bu maqsadga erishishda asosiy bosqich hisoblanadi. Zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlariga e'tibor qaratish huquqiy tizimning adolatli va samarali ishlashini ta'minlaydi. Bunda xalqaro standartlarga amal qilish, zamonaviy texnologiyalarni inobatga olish va inson huquqlarini buzmaslik bo'yicha qat'iy choralar ko'rish muhimdir. Kelgusida huquqni muhofaza qilish organlari tergov amaliyotlarini takomillashtirish orqali jamiyatda adolatni ta'minlashga hissa qo'shishi zarur.

**Inson huquqlari** – bu har bir jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, uni himoya qilish va hurmat qilish demokratik davlatning muhim vazifasidir. Tergov jarayoni esa ushbu huquqlarni ta'minlashda hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Ammo bugungi kunda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida inson huquqlarining buzilishi holatlari, ayniqsa, tergov jarayonida **qiynoq, bosim yoki zo'rlik ishlatalish** bilan bog'liq muammolar hali ham mavjud. Zamonaviy tergov amaliyoti nafaqat qonuniylikni, balki insonparvarlik tamoyillarini ham o'z ichiga olishi zarur. Texnologik taraqqiyot va xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar orqali tergov jarayonini adolatli va shaffof qilish bugungi huquqiy tizim oldidagi dolzarb masalalardan biridir.

## ZAMONAVIY TERGOV AMALIYOTIDA INSON HUQUQLARI: XALQARO STANDARTLAR, O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA TEXNOLOGIK YONDASHUVLAR

1948-yilda qabul qilingan BMTning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"<sup>1</sup> tergov jarayonlarida inson huquqlarini himoya qilish uchun asosiy hujjat hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar, masalan, Qiynoqlarga qarshi konvensiya tergov davomida inson huquqlarining buzilmasligini ta'minlovchi asosiy xalqaro huquqiy hujjatdir. So'nggi yillarda O'zbekistonda tergov amaliyotini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi. 2019yil bu sohaning jadal rivojlanish yili bo'ldi desak mubolg'a bo'lmaydi. Shu yilda Qiynoqlarga qarshi milliy mexanizmlar qabul qilindi. Shuningdek, tergovchilarining malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

<sup>1</sup> BMT, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

O‘zbekiston Respublikasida tergov amaliyotini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Jumladan: Konstitutsiya mamlakatdagi asosiy huquqiy hujjat bo‘lib, unda inson huquqlari va erkinliklariga bo‘lgan hurmat, shuningdek, tergov jarayonlarida insonning asosiy huquqlarini ta’minlashga doir asosiy prinsiplar belgilangan. Konstitutsiyaning 28-moddasi<sup>2</sup> hech bir inson aybsiz hibsga olishdan himoya qilishni kafolatlaydi, bu esa tergov jarayonlarining qonuniyligi va adolatini ta’minlashda asosiy me’yor hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish uchun kadrlar tayyorlash<sup>3</sup> va malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Vazirlar Mahkamasining qarori, bu jarayonda muhim qadam hisoblanadi. O‘quv kurslari orqali, huquqni muhofaza qilish organlarining mutaxassislari va boshqa javobgar shaxslar inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z bilimlarini kengaytiradi. Bu esa o‘z navbatida, **jamiyatda adolat va huquqiy tartibni ta’minlashni mustahkamlashga** xizmat qiladi.

**“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoni** – O‘zbekistonning jinoyatlarni tergov qilish tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan muhim huquqiy hujjatdir. Ushbu farmon, tergovchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish va professionalizm darajasini yuksaltirishga yo‘naltirilgan. Farmonda jinoyatlarni tergov qilishda yuqori malakali, o‘z ishini professional ravishda amalga oshiradigan kadrlarni tayyorlash uchun yangi tizim joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

Bu tizimda mutaxassislar uchun ta’lim, ilmiy-pedagogik yondashuvlar va amaliy ko‘nikmalarni oshirishga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ushbu Farmonda<sup>4</sup> tergovchilar uchun maxsus o‘quv kurslari va dasturlar ishlab chiqish, ularni xalqaro huquq va tergovning zamonaviy metodikalariga asoslangan tarzda tayyorlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Bu kurslar o‘z ichiga **psixologik yondashuvlar, huquqiy bilimlar, inson huquqlarini himoya qilish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash** kabi muhim sohalarni oladi.

Farmon, shuningdek, **xalqaro standartlarga** mos ravishda kadrlar tayyorlashni ta’minlashni nazarda tutadi. Tergovchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishda xalqaro tajriba va metodlardan foydalanish talab qilinadi. Yangi tizimda jinoyatlarni

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 28-moddasi. “Aybsizlik prezumpsiysi”.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzurida inson huquqlariga rivoja etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil qilish to‘g‘risida”gi Qarori

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoni

tergov qilishda **huquqiy va psixologik bilimlarni chuqurlashtirish**, tergovchilarining **inson huquqlarini hurmat qilish va muammo yechishdagi adolatli yondashuvni** ta'minlashga e'tibor qaratiladi. Tergovchilarining malakasini oshirishga oid kurslar, treninglar va seminarlar tashkil etish rejalashtirilgan. Ushbu Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tashkil etildi. Akademianing asosiy maqsadi jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloq qilish va takomillashtirishga qaratilgan. Bu, o'z navbatida, huquqni muhofaza qilish organlarining samaradorligini oshirish, jinoyatlar bo'yicha adolatli tergov o'tkazish va jamiyatda huquqiy tartibni ta'minlashga xizmat qiladi. Yangi tizim kadrlarning professionalizm darajasini oshirib, tergov jarayonlarini yanada shaffof va samarali qiladi. O'zbekiston Respublikasi o'zining xalqaro majburiyatlarini bajarish uchun xalqaro huquqning asosiy tamoyillarini o'z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqdi.

Xususan, "**Qiynoqlarga qarshi BMT konvensiyasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt**"ga asoslanib, tergov jarayonlarida inson huquqlari himoyasini ta'minlashni kuchaytirish maqsad qilingan. Bunda, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash uchun milliy huquqni mustahkamlashda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu normativ-huquqiy asoslar, o'z navbatida, O'zbekistonda tergov jarayonlarining xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlash va inson huquqlarini hurmat qilishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yangi tizim va huquqiy me'yorlar xalqaro miqyosda tan olingan prinsiplarga muvofiq, tergov jarayonlarida adolat va qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi Axborot texnologiyalari tergov jarayonida muhim o'rinn tutadi. Masalan, elektron dalillarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zaruriyati mavjud. Shuningdek, psixologik usullardan foydalanish orqali guvoh va gumondorlar bilan samarali ishslash mumkin. Ammo bosim o'tkazish yoki manipulyatsiya qilishga yo'l qo'ymaslik muhim hisoblanadi. Tergov jarayonida inson huquqlarini hurmat qilishni ta'minlash demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biridir. O'zbekistondagi islohotlar natijasida tergov jarayonlarini yanada insoniylashtirish va adolatni ta'minlashga imkon yaratilmoqda. Kelgusida xalqaro huquqiy hujjatlarga va normalarga amal qilish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish O'zbekiston Respublikasi tergov jarayonlari uchun adolatlik, tenglik va fuqarolar huquqlarini insoniylik tamoyili asosida amalga oshirishga yordam beruvchi asosiy yo'ldir.

## REFERENCES

1. BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948).
2. Qiynoqlarga qarshi konvensiya (1984) <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/conventionagainst-torture-and-other-cruel-inhuman-or-degrading>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 257-sonli Farmoni (2022).
4. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining** “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzurida inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil qilish to‘g‘risida”gi **Qarori**.
5. **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
6. **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992).** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
7. **Anderson, M. (2015). “International Human Rights Law: A Practical Approach”.** Oxford University Press.